

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari .....	98
<b>X.A.Yulbarsova</b>	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	102
<b>A.B.G'ulomov</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlarini .....	107
<b>B.Raxmanov</b>	
Ibn Sinoning nohiziqi tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar .....	110
<b>N.A.Imomova</b>	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari .....	117
<b>L.R.Usmonova</b>	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida .....	122
<b>B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini .....	128
<b>A.Tashanov</b>	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari .....	135
<b>A.A.Qambarov</b>	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	140
<b>D.X.Gafforova, I.I.Rizayev</b>	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari .....	144
<b>J.J.Shodiyev</b>	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni .....	150
<b>D.O.G'afurov</b>	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyofasi .....	155

---

#### SIYOSAT

<b>R.B.Mirzabayev</b>	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari .....	159
<b>R.A.Ikramov</b>	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarining o'rni .....	168
<b>D.Sh.Maxkamov</b>	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati .....	173
<b>M.M.Safarov</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari .....	177

---

#### TARIH

<b>A.Sharafiddinov</b>	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) .....	185
<b>M.F.Rasulov</b>	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri) .....	190
<b>M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov</b>	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari .....	196
<b>F.E.Atajanova</b>	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....	200
<b>B.T.Mirzaqulov</b>	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi .....	204

NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDA MUROSA FALSAFASIGA MUNOSABATNING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARIОСОБЕННОСТИ ОТНОШЕНИЕ К ФИЛОСОФИИ КОМПРОМИССА В УЧЕНИИ  
НАКШБАНДИFEATURES OF THE ATTITUDE TO THE PHILOSOPHY OF COMPROMISE IN THE  
TEACHINGS OF NAQSHBANDIRaxmatova Xolidaxon Xolikovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna– Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada murosa tushunchasining mazmun-mohiyati, falsafiy tahlili va uning naqshbandiya ta'limotidagi o'ziga xos jihatlari, mazkur ta'limotning yirik vakili Xoja Ahror Valiy faoliyatida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda murosayu madaroga munosabatning namoyon bo'lish xususiyatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается суть концепции компромисса, философский анализ и его особенности в учении Накшбанди, отзывы об особенностях проявления отношения к компромиссу в обеспечении социальной стабильности в деятельности крупнейшего представителя учения Накшбанди Ходжи Ахрора Вали.

**Abstract**

This article describes the essence of the concept of compromise, its philosophical analysis and its unique aspects in the teaching of Naqshbandiya, the views on the characteristics of the manifestation of the attitude to compromise in ensuring social stability in the activities of the great representative of this doctrine, Khoja Ahror Vali.

**Kalit so'zlar:** naqshbandiya ta'limoti, murosa tushunchasi, ijtimoiy barqarorlik, Xoja Ahror Valiy, maktublar, dialektik ziddiyatlar, kompromiss, tasavvuf, tarixiy jarayon.

**Ключевые слова:** доктрина накшбандия, концепция компромисса, социальная стабильность, Ходжа Ахрар Вали, письма, диалектические противоречия, компромисс, мистицизм, исторический процесс.

**Key words:** Naqshbandi doctrine, concept of compromise, social stability, Khoja Ahror Vali, letters, dialectical conflicts, compromise, Sufism, historical process.

**KIRISH**

Bugungi kunda erkin va farovon, insonparvar va adolatli davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi g'oyalar jamiyatimizning barcha qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Yangi O'zbekistonning poydevorini mustahkamlashda keng ko'lamlil vazifalarning bajarilishi mamlakatimiz barqaror taraqqiyotining muhim sharti bo'lib, yurtimizda bir osmon ostida yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlar, dinlar va konfessiyalarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, albatta.

Falsafaning dialektik ziddiyatlilik qonuniga muvofiq, har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada va biri ikkinchisini istisno etuvchi zidma - zid tomonlarga, kuchlarga ega. Bu tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ziddiyat deb atalib, u taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishini ifodalaydi. Agar jamiyatda manfaatlar to'qnashuvida yuzaga keladigan noantagonistik ziddiyatlar konsensus asosida hal etib borilmasa, ular o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib, antagonistik ziddiyatlarga aylanib ketishi mumkin. Har bir mamlakat ichidagi, dunyo miqyosidagi, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hayotdagi ziddiyatlarni ham murosa yo'li bilan hal etib borish hozirgi davr uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Murosa (arabchadan) bir-biridan rozilik, o'zaro kelishish, o'zaro kelishuvli munosabat, kelishuv, kelishuvchilik degan ma'noni anglatadi. Murosasozlik – kelishuvchanlik, kelishuvchilik bilan yon berish demakdir.(13, 304). Professor A.Z.Sharipov ijtimoiy hamkorlik haqida fikr bildirib, "murosa"(8,74) so'zining sinonimi sifatida kompromiss so'zini qo'llash mumkinligini ta'kidlagan. jumladan: "Inson manfaatlarini ta'minlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ijtimoiy hamjihatlik va hamkorlik tamoyillari benihoya yuksak ahamiyatga ega. Ko'plab adabiyotlarda ijtimoiy hamkorlik tamoyili murosa falsafasi deb aytiladi."

## FALSAFA

“Murosa” soʻzining sinonimi kompromiss boʻlib, bu soʻzga Sh.Xolmirzayevning Viki lugʻatda izohi quyidagicha: Boshqa tomonga (masalan, raqibga) uning baʼzi talablarida yon berish; u bilan kelishish natijasida oʻz talablarining bir qismidan kechish; shu asosdagi bitim. Birok biz hozir demokratik inqilob jarayonidamizki, birodarlar, bu jarayonning oʻzi bizdan hatto raqiblar bilan ham kompromisslar qilishimizni taqozo etadi.

Ziddiyatlar tahliliga qadim zamonlardan beri koʻpgina faylasuflar eʼtibor qaratib, jamiyat taraqqiyotida ziddiyatlar ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib kelishini tadqiq etishgan. Ijtimoiy ziddiyat jamiyat va guruhlar oʻrtasidagi kurash, bahs boʻlib, unda yakka individlarning emas, balki koʻpchilikning qiziqishlari aks etadi. Ijtimoiy ziddiyatlarning yechimida, odatda, u yoki bu tomonni kuch bilan yengish yoki kelishuv holati kuzatiladi.

Maqolada Naqshbandiya taʼlimotida murosa falsafasiga munosabatning oʻziga xos xususiyatlarini falsafiy jihatdan tahlil etishni maqsad qildik. Tasavvufning xojagon-naqshbandiya suluki zamirida mavjud boʻlgan mehnatsevarlik, odamiylik, adolatpeshalik gʻoyalari XV asr ikkinchi yarmiga kelib Movarounnaxr va Xurosonda oʻzining yuksak nazariy va amaliy rivojini topdi. Bunda naqshbandiylik taʼlimotining yirik vakili Xoja Ubaydulloh Ahrorning hissalarini beqiyosdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Hozirgi davrda ziddiyatlarning paydo boʻlishi, rivojlanishi, yakunlanishi hamda ularning konstruktiv yechimini oʻrganadigan murosa va kompromiss masalalarining fan yoʻnalishi Konfliktologiya fanidir. Biroq falsafa fani ziddiyatlarning falsafiy jihatini, ularning falsafiy qonun va kategoriyalarning mazmun mohiyatiga hamohang ravishda ezgulik tomonga yoʻnaltirishning oʻziga xos jihatlari oʻrganadi. Umuman olganda, murakkab vaziyatdagi insonga hayotda orttirgan tajribasidan tashqari din hamda sanʼat, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy fanlarga oid bilim va koʻnikmalar ham kerak boʻladi.

Bugungi globallashuv jarayonida har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri boʻlib, xalqimizning maʼnaviy axloqiy tarbiyasida buyuk ajdodlarimizning maʼnaviy merosi muhim oʻrin tutadi. Shu jihatdan olganda, buyuk mutasavviflardan biri Xoja Ahror Valiyning ijodiy merosi oxirgi yillarda faylasuflar va jamiyatshunoslarning oʻrganish obyekti boʻlib kelgan. Chunki, u ilgari surgan konstruktiv ahamiyatga ega boʻlgan *tasavvufiy-falsafiy qarashlar bugungi kunda ham yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda alohida oʻringa ega*. Xoja Ahror Valiyning irfoniy-falsafiy, tinchliksevarlik, murosa falsafasiga doir qarashlari qator qoʻlyozma asarlarida bayon etilgan. Mutafakkir ijodi, taʼlimoti koʻpgina mutaxassis, soha olimlari tomonidan maʼlum bir jihatlari tadqiq etilgan boʻlib, tasavvuf taʼlimotining mazmun-mohiyati, maʼnaviy merosining falsafiy tahlilini oʻrganishda ayniqsa V.Bartold, Ye.E.Bertels, Frans Rouzentel, Dj.Trimingem, A.Кнышning monografiyalari muhim metodologik asos boʻldi.

Xorijiy mutaxassis olimlar tomonidan umuman tasavvuf taʼlimotlari, tariqatlar tarixi, ularning rivojlanish geografiyasi va mohiyati xususida qator tadqiqotlar eʼlon qilingan. Xususan, V.V.Bartold, I.Yu.Krachkovskiy, A.D.Кныш, Ye.E.Bertels, A.V.Smirnov, M.T.Stepanyans tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Xoja Ahror Valiy ilmiy merosining tasavvuf taʼlimotida tutgan oʻrnini ochib berishda tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida Xoja Ahror Valiyning hayoti, faoliyati va maʼnaviy merosini oʻrganishga katta eʼtibor qaratilmoqda. N.Komilov, B.Bobojonov, B.Boyqobilov, B.Valixojayev, A.Juzjoniy, E.Karimov, K.Kattayev, M.Kenjabek, A.Muhammadxoʻjaev, R.Tillaboyev, A.Oʻrinboyev, M.Hasaniy, H.Aliqulov, G.Navroʻzovalarning tadqiqotlarida Xoja Ahror Valiy hayoti va maʼnaviy merosi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**NATIJALAR**

Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy hayotda tutgan oʻrni xususidagi masalani, shu kungacha anʼana boʻlib kelganidek, naqshbandiylik tariqati sufiylikning alohida yoʻnalishi sifatidagi ijtimoiy oʻrnidan ayri, muayyan qobiqda hal etib boʻlmaydi. Hozirgi fan taraqqiyoti sufiylikning ijtimoiy ahamiyati toʻgʻrisida yaxlit tasavvurga ega boʻlish va uni xolis baholash imkonini beradi.

Naqshbandiya tariqati gʻoya va tamoyillari, ayniqsa, zikri hafiy va unga asoslangan tariqati amaliyoti XIV-XV va undan keyingi asrlarda Turkiston, ijtimoiy siyosiy, madaniy, ilmiy-falsafiy, diniy-irfoniy va badiiy-axloqiy fikri taraqqiyotiga juda katta, har tomonlama taʼsir koʻrsatdi.

Ayniqsa, naqshbandiya tariqatida bagʻrikenlik, rizo, murosa-yu madora keng tushunilib, tariqat arboblari hayotining mazmuniga aylangan. Hazrat Bahouddin Naqshband naqshbandiya tariqatining balogardonlik kabi ezgulikka, bagʻrikenlikka, olijanoblikka yoʻnaltiruvchi taʼlimotning

rahnamosidir. Islomda bu dunyo bizga sinov uchun berilganligi, bu sinov-imtihon muvaffaqiyatli bajarilsa, kishi haqiqiy boqiy dunyoda Olloh ne'mati ila taqdirlanganligi anglanadi.

Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqatining mintaqa ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sirini ba'zi holatlarda salbiy baholangan edi, tarix, zamon bunday fikrlarning asossiz ekanligini isbotladi. Bahouddin himmatni shu qadar muhim diniy-irfoniy va ijtimoiy-siyosiy kategoriya, tamoyil sifatida muhim hisoblaganki:

Himmat turo ba kungirai Kibriyo kashad,  
On saqafgohro beh az in nardbon maxohi.  
Ma'nosi: Seni ulug'lik arshiga yetkazar himmat,  
Bu himmat narvonidir senga tappa-taxt.

Naqshbandiylik tariqati so'fiylik tarixida birinchi bo'lib, so'fiylikni tarkidunyochilik an'anasidan xalos etib, musulmonlarni faol hayotga, haq yo'lida samarali mehnatga chorladi. Shu tufayli u dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ya'ni chinakam xalq harakatiga aylandi. Uning shiori "Dast ba kuru dil ba yor" edi, ya'ni "Qo'l – mehnat bilan, Dil – xudo bilan". (3, 273)

Bartoldning fikricha, Xoja Ahror rahnamoligidagi bu harakat, muayyan darajada o'z davrining hokimlari – temuriy zoda sultonlarning ittifoqchisi bo'lgan aqidaparast davlatmand ulamolarga qarama – qarshi turgan katta kuch edi. (1) Payg'ambarimiz (s.a.v.) imonning kuchli va zaif darajalarini belgilab berganlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Birono nojo'ya ish qilayotganni ko'rsangiz, qo'lingiz bilan qaytaring, bunga kuchingiz yetmasa, tilingiz bilan qaytaring. Bunga ham imkon topmasangiz, hech bo'lmasa, ko'nglingizda u ishga norozi bo'ling, ana shu imonning eng zaif darajasidir", deganlar (Imom Buxoriy rivoyati). Dinimiz noto'g'ri holatlarga beparvo bo'lishdan qat'iy qaytaradi, uni iloji boricha tezroq tuzatishga targ'ib etadi, murosaga chaqiradi. Tariqat qutbi Xoja Ahror Valiy hadislarni juda yaxshi bilgan. "Risolai validiyya" asarida so'zda, holda, fe'lda Payg'ambar alayhissalomga mutoba'at etmoq kerakligini ta'kidlagan va mazkur ma'noda "Qo'li va boshqa a'zolari bilan mo'min birodarlari muhtoj bo'lgan narsalarda yordam berish, alalxusus, janobi Haq taologa yuzlangan" toifaga yordam berish tamoman nur va safodir. Mo'min iymonli kishilarning ishlarida do'stlik bilan yordam qilguvchi bo'l, qo'ling va tiling bilan ularga madadkor bo'l,"- deganlar.(7,31)

### MUHOKAMA

Shu narsa e'tiborga molikki, kompromiss holati muayyan ijtimoiy-siyosiy muhit, davr, ma'naviy-madaniy yondashuvlar o'zgarishi bilan konsensusga yoxud begonalashuvga aylanishi mumkin. Shu boisdan ham kompromiss oraliq muhit bo'lib, tayanish va ishonch bilan hamkorlik qilish uchun mustahkam bo'lmagan holat hisoblanadi. Ammo, jamiyat hayotida mohiyat e'tiboriga ko'ra kompromiss xolati kerakli hodisadir. Jaloliddin Rumiy ta'rifiga ko'ra "Murosa bo'lsa kichik ishlar rivojlanadi. Murosa bo'lmasa, katta ishlar ham zavol topadi."(14, 94)

Murosa holatida har ikki tomon alohida-alohida rivojlanishga intiladi. Nosog'lom raqobat muhiti amal qiladi. Ammo murosa, ya'ni, kompromiss xolatida kichik ishlar bir muncha jonlansada, katta ishlar rivoj topmaydi. Shunga qaramay, kompromiss xolati jamiyatda ma'lum muddatga bo'lsa-da, muayyan turg'unlikni, tinchlikni ta'minlab berilishi jihatidan ijobiy hodisadir.

Tasavvufda ba'zan "murosa" so'zi "rizo" bilan hamohang mazmun kasb etadi. Tilimizda "rozilik", "rozi bo'lish" shaklida ishlatiladigan ma'no arabchada "rizo" deyiladi va saxat–norozilikning teskarisini anglatadi. Rizoning ta'rifi haqida bir-birini to'ldiruvchi ta'riflar kelgan: Munoviy: «Rizo insonning o'ziga yetgan musibat yoki yetmay qolgan yaxshilikni o'zgarmasdan, nafsoniy yaxshilik bilan qabul qilishidir», degan. Ba'zilar: «Rizo qazoning achchig'iga nisbatan qalbning sururidir», deyishgan. Yana: «Rizo qaysi hukmda bo'lsa ham, jaza'ning bo'lmasligidir», deyilgan.

Ba'zilar: «Rizo – hukmni xursandlik bilan kutib olish», deyishsa, boshqalar: «Hukmlar jarayoni ostida qalbning sokin bo'lishi rizodir», deyishgan. Hozirgi davrda rizo tushunchasi keng qo'llanilmoqda va xalqning rizoligi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016–yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan — shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham — shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz, birinchi navbatda, kim bilan muloqot qilishimiz kerak — odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak — avvalo, xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", deganida barchamizning ko'nglimiz ravshan tortgan edi. Ulamolarda rizoni ikki turga taqsimlaganlar. Birinchi tur: o'ziga amr qilingan narsani ado qilishga hamda nahyi qilingan narsani tark qilishga rozi bo'lish bu yuqori odob namunasidir. Bu

## FALSAFA

turdagi rizo vojibdir. Ikkinchi tur: kambag'allik, bemorlik va xorlik kabi musibatlardan rizo bo'lish. Bu rizo ham vojibligini ulamolar ta'kidlaganlar. Ba'zilar uni mustahab deganlar. Ammo kofirlik, fosiqlik va osiylikka rozi bo'lish mumkin emas.

Qur'oni karimda rizo ham Alloh taologa, ham bandaga nisbat berilgan: «**Alloh ulardan rozi bo'ldi, ular ham Undan rozi bo'ldilar**» («Bayyina» surasi, 8-oyat). Ya'ni, Alloh ulardan bu dunyoda qilgan iymon-e'tiqod va toat-ibodatlaridan rozi bo'ldi. Mo'min bandalar ham o'zlariga berilgan oliy martabalar va yaxshiliklar uchun Alloh taolodan rozi bo'ldilar. Rizo haqida kelgan oyatlar ham shu ma'noni ifoda etadi va bir necha yo'nalishlarda bo'ladi.

## XULOSA

Markaziy Osiyoda, jumladan, uning qoq o'rtasida joylashgan O'zbekistonimizda tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun ham, albatta, ma'naviy tahdidlarga qarshi keskin va muttasil kurash olib borish bilan bir qatorda xalqimizda murosa qila olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Albatta, ziddiyatli holatlar kundalik hayotdami, ijtimoiy muhitdami, milliy yoki irqiy masaladami – jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Dunyodagi ziddiyatli vaziyatlarning yil sayin ortib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, ziddiyatli vaziyatlarni to'g'ri baholash uchun tarix, psixologiya, politologiya fanlarini chuqur o'zlashtirish bilan birga albatta murosa falsafasidan xabardor bo'lmoq kerak.

Yangi O'zbekiston sharoitida va qolaversa, butun dunyo miqyosida tasavvufning murosa, bag'rikenglik, sabrlik, shukronalik fazilatlarining barkamol inson tarbiyasidagi nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi. Demokratiyaning mohiyatiga nazar tashlasak, uning asosida murosachilik (kompromiss) va umumrizo qaror (konsensus) topish siyosati yotadi. Demokratiyaning asosiy vazifalaridan biri – jamiyatdagi kuchlarni kelishish va murosa asosida birlashtirib, ularni umumrizo qarorga olib kelish va mamlakat taraqqiyoti uchun xizmatga safarbar qilishdan iboratdir. Mazkur nuqtai nazardan Naqshbandiya ta'limoti va Xoja Ahror falsafiy qarashlaridagi bag'rikenglik, murosa-yu madora, rizo xususidagi hikmatlardan hozirgi davrda foydalanish barkamol yoshlarni tarbiyalashda samarali ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бартольд В. Мистицизм в исламе, Соч. Т.6. Ислам: — П.6 1918. Введение к изданию хууд ал-алам. Сочинение: Т. 8. —Москва: Наука 1973.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. — Москва: Наука, 1965
3. Knish A.D. Musulmon tasavvufi. — Tarjimon Qodirqul Ro'zmatzoda-Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022.- 448 b.
4. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent: "Movarounnahr"- "O'zbekiston", 2009. — 446 b.
5. Bobojonov B. Islom, tasavvuf va hukmdorlarga nasihat masalasi // Islom, tarix va ma'naviyat. -Toshkent: Meros, 2000. — B.83-84
6. Каримов Э. Роль, место и социальные позиции духовенства Мавераннахра в XVв. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата исторических наук. -Ташкент: 1990.; Некоторые черты хозяйственной и политической деятельности Ходжа Ахрара // Узбекистан: страницы истории. -Ташкент: 1991. — С.5-7.
7. Mirzo Kenjabek. Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahror: "Risolayi volidiyya" nazmiy tarjimai va sharhi. -Toshkent: Sharq, 2019.
8. Sharipov A.Z. Inson manfaatlarini taminlash va halq bilan muloqot qilish jarayonlarida ijtimoiy hamkorlik. Imom Buxoriy saboqlari. Manaviy-marifiy, ilmiy-adabiy jurnal. №3, 2017– Samarqand, 2017. B.73-76
9. Navro'zova G.N., Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. "Buxoro" nashriyoti, 2010.
10. O'rinboev A., Xasanov M. Navoiy zamondoshlari maktublarida. — Toshkent: Fan, 1990. — B.14-77.; O'rinboev Asomiddin, Karimov G'ulom. Xoja Ahror Valiy maktublari. // — Toshkent: Hidoyat. №12. 2004. — B.26.; O'rinboev A. Xoja Ahror Valiy: uydirma va haqiqat // Imom al-Buxoriy saboqlari. №2. 2004. — B.99-101.; O'rinboev A. Tarixiy ruq'alar // Imom al-Buxoriy saboqlari. № 1, 2. 2004. —B.101.; № 3. — B.176.; № 4.; The Letters of Khavaja Ubayd Allah Ahrar and his Associates/ Jo-Ann Gross, Asom Urnunbaev. Brill. Leiden-Boston-Koln-2002.
11. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar/ Tarjimonlar Mahmud Hasaniy, Bahridin Umrzoq, Hamidulloh Amin. — Toshkent: Adolat, 2004.
12. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot/ Nashrga tayyorlovchilar, so'z boshi va izohlar mualliflari Mahmud Hasaniy, Bahridin Umrzoq. — Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004. — 192 b.
13. Ijtimoiy siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. Toshkent. Sahhof nashriyoti, 2021. 304 b.
14. Идрис шах. Суфизм. М. 1994.